

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Ostonaqulova, S.X.Zakirova	
Sariqo'rg'on tarixiy yodgorlik tuproq-gruntlarining sho'rlanganlik holati.....	117
S.X.Zakirova, R.Z.Rajavaliyeva, G.I.Ikromaliyeva	
Shifobaxsh malina o'simligini madaniy o'g'itlar bilan oziqlantirish.....	121
M.X.Diyorova, S.N.Xoliqova	
G'uzor massividagi qo'riq och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoiy xossalari.....	126
M.T.Isag'aliyev, R.B.Matholiqov, N.Sh.Xakimjonova, D.K.Tolibova	
Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibining o'zgarishi	132
V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov	
Yozyovon tumanining tabiiy geografik shart-sharoitlari.....	136
R.A.Iminchayev, M.A.Yuldasheva, J.G' Ma'rufjonov, G.M.Mamirjonova, G.G'.Yusupjonova	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarning mineralogik tarkibi hamda mineral o'g'itlarning ahamiyati, sinflarga bo'linishi	140
R.A.Iminchayev, T.A.Fayziyeva, M.X.Boboyeva, D.S.Ro'zaliyeva, R.M.Raximova	
Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlardagi Kovul o'simligining morfologiyasi, dorivorlik xususiyatlari va tuproqning agrokimyoiy xossalariiga ta'siri	144
N.Sh.Bazarova, X.B.Mustafayev	
Tuproqda kimyoiy birikmalarning to'planishi va insonlarda kelib chiqayotgan kasalliklar.....	147
N.A.Ergasheva	
Farg'ona va Qo'qon shaharlari tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari.....	150
N.I.Teshaboyev, O.A.Mirodilova, A.A.Bozorboyeva	
Mikrobiologik o'g'itlarning tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'siri	157
M.A.Yusupova	
Sug'orish ta'sirida qumliklarning o'zgarishi	160
O.K.Usmonov, M.A.O'lmasova	
Almashlab ekish, tuproq unumdorligini oshirishni hamda sifatli chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni garovidir	164
Q.A.Darvonov, A.A.Saminov	
Suyuq azotli o'g'itlar bilan bargidan oziqlantirishni kuzgi bug'doyning rivojlanish fazalariga ta'siri	167
S.A.Maxramxujayev, A.N.Meliqo'ziyev, O.D.Saidova	
Yangi o'zlashtirilgan eroziyalangan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar va gips differensiatsiyasi	170
R.M.Abdurahmonov, M.I.Mahmudova, Q.M.Shermatova, G.H.O'tanova, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova	
Kolmatajlangan tuproqlarda pista yetishtirishning afzalliklari	174
R.A.Iminchayev, M.A.Sattorova, J.G 'Yigitaliyev, J.G'.Ma'rufjonov, M.X.Boboyeva	
Janubiy Farg'onada shakllangan och tusli bo'z tuproqlarni agrokimyoiy xossalarni o'zgarishida azotli o'g'itlarning o'mi hamda ulami ishlab chiqarish	178
S.M.Nazarova, Z.R.Avliyoqulov, Y.G'.Ismoilova	
Buxoro vohasi sug'oriladigan tuproqlari tahlili.....	182
A.T.Turdaliyev, G'.G'.Mamajonov, Y.H.Muhammadov	
Sug'oriladigan tuproqlarda lantanoidlar va radioaktiv elementlar geokimyoisi	
M.Z.Mamadaliyev	
Kuzgi bug'doyning barg sathi maydoniga sholi poxoli, mahalliy hamda mineral o'g'itlarning ta'siri	192
G'.T.Parpiyev, N.A.Qilichova	
Konimex tabiiy-geografik rayoni tuproqlarining mikro va makroagregatligi	195

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

V.Y.Isaqov, G'A.Akbarov	
Farg'ona vodiysi qumli hududlarining umumiyl tafsifi.....	200
M.A.Газиев, З.А.Мукимов	
Роль органических веществ в стимулирование деятельность почвенных микроорганизмов.....	204



УО'К: 634.2

KOLMATAJLANGAN TUPROQLARDA PISTA YETISHTIRISHNING AFZALLIKLARI
ПРЕИМУЩЕСТВА ВЫРАЩИВАНИЯ ФИСТАШЕК В КОЛЬМАТИРОВАННЫХ ПОЧВАХ
ADVANTAGES OF GROWING PISTACHIOS IN COLMATED SOILS

Abdurahmonov Rahmonali Muhammadali o'g'li¹

¹Farg'ona davlat univesiteti talaba

Mahmudova Madinaxon Ikromjon qizi²

²Farg'ona davlat univesiteti talaba

Shermatova Qutbiniso Maxamadjon qizi³

³Farg'ona davlat univesiteti magistran

O'tanova Gulnoza Habibullayevna⁴

⁴Farg'ona davlat univesiteti magistran

Sotiboldiyeva Go'zalxon Tolibjonovna⁵

⁵Farg'ona davlat univesiteti, b.f.f.d., dotsent

Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna⁶

⁶Farg'ona davlat univesiteti- b.f.f.d., dotsent

Annotatsiya

Maqolada pista o'simligini kamyoviy tarkibi, tibbiyat va texnika sohasida foydalaniладigan mahsulotlari va och tusli bo'z tuproqlar ustida shakllangan kolmatajlangan tuproqlarda yetishtirishning avzalliklari keltirilgan.

Annotatsiya

В статье представлены химический состав расщепления фисташки, продукция из него, используемая в области медицины и техники, а также преимущества выращивания в колматированный почвах, образующихся на светло-сероземах.

Abstract

The article presents the chemical composition of the pistachio plant, products made from it used in medicine and technology, as well as the advantages of growing in colmatized soils formed on light gray soils.

Kalit so'zlar: kolmatajlangan tuproq, pista, o'simlik, iqlim, hosil, shifobaxsh.

Ключевые слова: колматированный почва, фисташки, расщепления, климат, урожай, исцеление.

Key words: colmatized soil, pistachios, plants, climate, harvest, healing.

KIRISH

Pista qimmatbaho ekinlardan biri bo'lib, uning nafaqat mag'izi balki moyasi va bargidan ham texnika va tibbiyotda foydalnish uchun kamyoviy moddalar olinadi. Bu o'simlikni yetishtirish uchun o'ziga hos tuproq-iqlim sharoitini talab etadi.

Pista tabiiy ravishda O'rta Osiyoning tog' qiyaliklarida (O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston), Eronning shimoliy-sharqida va iqlim sharoiti shunga o'xshash sanoqli davlatlardagini o'sadi.

Pista tog' oldi va va quyi mintaqalarida tosh va qoyali hududlarida (dengiz sathidan 700-800 dan 1500-700 m balandlikda) efemeroidli o'tloqlar mintaqasida o'sadi. Bu jihatdan tosh-shag'allar ustida shakllangan och tusli bo'z kolmatajlangan tuproqlar pistta yetishtirish uchun qulay tuproq-

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

iqlim sharoitiga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham och tusli bo'z tuproqlar ustida shakllangan kolmatajlangan tuproqlarda pista yetishtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhimdir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pista yetishtirish uchun obyekt sifatida So'x konus yoyilmasing yuqori qismida sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar ustida shakllangan suniy kolmatajlangan tuproqlar tanlandi. Bu tuproqlardagi elementlarning yalpi miqdorini neytron-aktivatsion analiz usulida aniqlandi. Bundan tashqari, O'zgidromet va adabiyotlardagi ma'lumotlardan ham qayta ishlangan holda foydalanildi.

Tog' yon bag'irlarining malikasi deb ataladigan pista (*Pistacia*), xandon pista — pistadoshlar oilasiga mansub yong'oq mevali buta yoki daraxt bo'lib, 300 yilgacha yashaydi, 20 dan ortiq turilari mavjud. Janubiy Yevropa, G'arbiy, O'rta va Sharqiy Osiyoda, Shimoliy, Sharqiy Afrika va Markaziy Amerikada o'sadi. O'rta Osiyoda yovvoyi hodda o'sadigan chin pista (*Pistacia vera*) va to'mtoq bargli pista (*Pistacia mutica*) turlari mavjud. Bo'y 2,5–10 metr bo'ladi. Pista ikki uyli o'simlik bo'lib, -40°C sovuqqa ham chidamli. Aprel-may boshlarida dastlab erkak, so'ngra urg'ochi daraxtlari gullaydi, pistasi avgust-sentabr oylarida pishadi. Asosan urug'idan, ayrim hollarda payvandlash orqali va bachkisidan ko'paytiriladi.

Qadimgi Rimda pista noyob va mashhur ediki, uni yetishtirish uchun maxsus joylar ajratilgan. Rimga Ispaniya va Italiya mamlakatlarning pistasi karvonlarda ko'p miqdorda keltirilgan.

Amerikaga 1854-yilda bu meva Usmonli Imperiyasining Favqulodda va Muxtor elchisi sababli olib kelingan. 1880-yildan boshlab Kaliforniyada pista yetishtirila boshlandi.

Yuqori ta'm sifatiga ega bo'lgani tufayli pista mevalari jahon bozorida grek yong'og'i va bodomga nisbatan 3-4 marta yuqori baholanadi. Bevosita xomashyo bo'lgani sababli turli qayta ishlovlardan so'ng undan qandolatchilik sanoatida, kolbasalarning oliy navlarini, shuningdek parhez taomlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Abu Ali ibn Sino tomonidan yozilgan "Tib qonunlari" kitobida pistaga jigar, oshqozonni davolashda, tashqi jarohatlar bitishida yordam beradigan vosita sifatida tariflangan. Pista tuzalmas o'pka kasalliklarini davolashda ham qo'llaniladi. Po'stlog'i oshqozon kasalliklarida qaynatib ichiladi. Ming yillar davomida Suriya va Eron tabiblari ortiqcha vazndan xalos bo'lib, chiroyli qaddi qomatga ega bo'lishni xohlagan insonlarga dori sifatida tavsiya etilgan. Pista yelimi terpentin deb nomlanadi va o'zining yuqori texnik xususiyatlari bilan ajralib turadi. U samolyotsozlikda keng qo'llaniladigan spirtli va moyli lakkarni tayyorlash uchun yaroqli hisoblanadi. Pista bejiz kombinat daraxt deyilmaydi, chunki uning barcha qismi (yog'ochi, mevasi, yelimi) insonlar tomonidan turli ehtiyojlari uchun qo'llanilishi mumkin. O'tayer dengizi havzasidagi mamlakatlarda (Eron, Turkiya, Suriya va boshqalar) yuqori daromad keltirishi sababli pista "yashil oltin" yoki "oltin daraxt" deb ham ulug'lanadi. Bundan tashqari bu mamlakatlarda asosiy mahsulot yovvoyi holda o'suvchi chakalakzorlardan emas, balki madaniylashtirilgan pista plantatsiyalaridan olinadi.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha xandon pista yetishtiriladigan umumiyy maydon 0,82 mln hektarni tashkil etib, bu Yaqin Sharq, O'rta Yer dengizi va Osiyoning g'arbiy mintaqalaridagi mamlakatlар hissasiga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilda AQShda yetishtirilgan pista miqdori 523900 tonnani (165518 ga), Eronda 135000 tonna (125544 ga), Turkiyada esa 119355 tonna (389451 ga) ni tashkil qilgan. O'zbekistonda 2016 yilda 700 tonna xandon pista yig'ishtirib olingan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 400 tonnani tashkil etgan [2, 3].

Bugungi kunga qadar respublikada 34 ming gektardan ortiq maydonda ushbu turdag'i meva plantatsiyalari barpo qilingan. Plantatsiyalarning yillik o'sishi 8 ming gektarga yaqinini tashkil etadi. O'zbekiston olimlari yuqori mahsulдорligi va ajoyib ta'mi bilan ajralib turuvchi 13 navdag'i xandon pista daraxtini yaratib, patentlagan [4].

Pista etishtirishda to'g'ri pista navini tanlash juda muhim, chunki har bir tuproq va iqlim sharoiti ma'lum bir navga juda mos keladi. Fermerlar pistaning qaysi turini yetishtirishni tanlashdan oldin, tanlangan nav o'z yetishtirayotgan hudud sharoitiga mos kelishi uchun yaxshi ma'lumotga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Tuproqning muhiti - pH 7 va 8, harorat 25-35°C bo'lganda pista o'simligi yaxshi o'sadi. Farg'ona vodiysida xandon pista (*Pistaciavera*) yetishtirish uchun qulay hisoblanadigan lalmikor dehqonchilik zonasida yetishtirilibgina qolmasdan so'g'oriladigan yerlarda ham yetishtirilmoqda [5, 6].

2-SHOBA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI

O'zbekistonning Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 35 hektar maydonda yirik xandon pista plantatsiyasi barpo etilmoqda, kelgusi yili esa bu plantatsiya maydonini 200 hektarga yetkazish rejalashtirilgan. Bu plantatsiya uchun Eron xandon pistasi navlari tanlangan.

Ma'lumki, xandon pista qurg'oqchilikka chidamli daraxt-butalaridan biridir. Mazkur plantatsiya Rishton tumanidagi "Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini hududida suvsiz va toshloq yerlarda barpo etilmoqda [7].

NATIJA VA MUHOKAMA

Xandon pista ko'chatlarini ekish yangi takomillashtirilgan texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda, buning natijasida daraxtlar 7-8 yildan so'ng meva bera boshlaydi, ya'ni an'anaviy ekish usuliga nisbatan 4 yil erta hosil olinadi.

Farg'ona viloyatining xuddi shu tumanida xandon pista yetishtirish bo'yicha "Agromaktab" tashkil etilmoqda, u xandon pista yetishtirish texnologiyalari ilmiy markazini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu ekinning ko'chatlari yetishtiriladigan pitomnik, laboratoriya va issiqxonalar tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda pista o'simligi tosh-shag'allar ustida och tusli bo'z tuproqlarda shakllangan sun'iy kolmatajlangan qatlamlari qalinligi kuchsiz shakllangan tuproqlarda ham yetishtirish yashxi samara bermoqda.



1-rasm. Kolmatajlangan tuproqlardagi pistda plantatsiyalari.

Shunday pista plantatsiyalardan biri O'zbekiston tumani "Sabr" fermer xo'jaligiga qarashli 1 hektar maydonga ekilib parvarish qilinmoqda.

Bu tuproqlar dastlabki ikki yilda tomchilatib faqat ko'chat ostiga suv berish yo'li bilan sug'orildi. Lekin bu usul suvni tejash uchun samarali bo'lgani bilan bir qatorda tuproq hosil qilish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ya'ni tuproq qatlami hosil bo'lmayotgan bu esa o'z navbatida o'sib borayotgan pita o'simliklarini ijobiy ta'sir qilmayotganligi aniqlandi. Shuning uchan bugungi kunda daryoning loyqa suvi bilan sug'orish ishlari olib borilmoqda [8].

Ko'chatlar 2021-yil ekilgan bo'lib, agrotexnik tadbirdarlari va o'g'itlarni to'g'ri qo'llanilganligi sababli bu yil ya'ni 2024-yilda 2 tupi gullab 5 dona meva qildi.

XULOSA

Pistada juda ko'p bo'lgan selen immunitet tizimini B7 yoki biotin proteinni hazm qilish va yog'larni eritish xususiyati bilan metabolizmni yaxshilaydi. Pista tarkibidagi lutein ko'z uchun foydalı bo'lib, ko'rish qobiliyatini oshirib, ko'z salomatligi uchun yaxshi profilaktika hisoblanadi.

Buyrak va jigar faoliyatida buzilishlarga olib kelmaslik uchun shifokorlar kuniga 30 grammidan ko'p bo'lmagan pista iste'mol qilishni tavsiya qiladilar. Yuqoridaqilardan ko'rindiki xalqimizni sifatli va arzon pista mahsuloti bilan taminlash pista yetishtiriladigan plantatsiyalarga ilmiy yondashish kerakligi anglatadi.

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. https://east-fruit.com/uz/tag_uz/pista/
2. <https://www.atlasbig.com/en-gb/countries-by-pistachio-production>
3. Sotiboldiyeva G.T. Farg'ona viloyati kolmatajlangan tuproqlarining biogeokimyoiy xususiyatlari va ulardan foydalanish. diss. Avtoref. b.f.f.d. (PhD)- T.: 2018. 40-b.
4. Yuldashev G', Sotiboldiyeva G.T. Sug'oriladigan kolmatajlangan och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyoiy xossalarni o'zgarishi. FarDU ilmiy xabarlari. Farg'ona. № –5. B. 29-34 b.
5. Pratov O', Shamsuvaliyeva L., Sulaymonov E., Axunov X., Ibodov K., Maxmudov V. "BOTANIKA (Morfologiya, anatomiya, sitematika geobotanika)". Ta'lim nashriyoti. Toshkent - 2010.
6. Paula Rudall. "Anatomy of flowering plants". Cambridge University Press.2007. 7. Agro olam.uz. 09.11.2021 yil.
8. Abduxakimova, X.A. (2021). Shoximardonsov konus yoyilmasi sug'oriladigan tuproqlarining geokimyosi. B.f.f.d. diss. avtoref. F., 42.